

medium of communication or even inclusion of some other elements in communicating information.

REFERENCES

1. Anthony Edward M. 'Approach, method and technique. English Language Teaching. - 1963PP.65-67
2. Ellis, R. Task-based Language Learning and Teaching.- Oxford: Oxford University Press. 2003.

PEDAGOGLARNING KASBIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING ELEKTRON-METODIK PLATFORMASI VA UNING AVZALLIKLARI

Mamatova Dilnoza Bekpo'latovna

O'zbekiston davlat jahon tillar universiteti

Ingliz tilini o'qitish metodikasi va ta'lim texnologiyalari kafedrası
katta o'qituvchisi (PhD)

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tizimida faoliyat yuritayotgan ingliz tili o'qituvchilari uchun taratilgan elektron platformaning tarkibiy qismlari, avzalliklari hamda uning faoliyati borasida tushunchalar berib o'tilgan. Bu borada ilmiy izlanishlar olib borgan olimlarning ishlari ham keltirib o'tilgan.*

***Kalit so'zlar.** Elektron platforma ,uzluksizlik, yondashuv, kommunikativ, tizim-faoliyat, shaxsga yo'naltirilgan, integrativ, global.*

Hozirda mamlakatimizdagi ko'pgina tashkilotlarida elektron shaklda ko'plab axborot-ta'lim resurslari yaratilgan, ammo bunda tizimli yondashuv mavjud emas. Bunga sabab, ta'lim jarayonida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari amalda qo'llash bo'yicha etarli malaka va ko'nikmalarining yo'qligidur.

Tadqiqotimizda elektron-metodik ta'minotni ishlab chiqishdan asosiy maqsad axborot-kommunikatsiya texnologiyasi asosida pedagoglarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishdir. Unga ko'ra, biz ushbu texnologiya vositasini


ingliz tili o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish uchun mustaqil ta'lim olish faoliyatini tashkil etuvchi ko'prik sifatida ko'ramiz. Bundan tashqari, mustaqil ta'limda texnik vositalar va usullardan foydalanishni yanada soddalashtirish va osonlashtirish masalalarini ham ko'rib chiqqanmiz.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari pedagoglar uchun turli vazifalarni, xususan pedagogik ta'lim vositasi, ta'lim ob'ekti kabi funksiyalarni bajaradi [1]. Maktabgacha ta'lim tashkiloti ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiluvchi elektron-metodik ta'minot va uning resurslar tarkibi maktabgacha ta'lim tizimida mustaqil ta'lim olishni tashkil etishni ifodalaydi.

Maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida – ushbu tizimda innovatsiyalarni, ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish maqsadida maktabgacha ta'lim tashkilotlarini kompyuterlar bilan ta'minlash, internet tarmog'iga ulanishni bosqichma-bosqich amalga oshirish hamda tizimni raqamlashtirish masalalari keng yo'lga qo'yilgan[2]

Izlanishlarimiz natijasida, oliy ta'lim va xalq ta'limi o'qituvchi pedagoglarining kasbiy kompetentligini oshirish kurslarining, dasturlarining mavjudligi, lekin aynan maktabgacha ta'lim tashkiloti ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini oshirish kurslarining mavjud emasligi, dasturlarini takomillashtirish lozimligi ma'lum bo'ldi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faqatgina xalq ta'lim o'qituvchilari yoki oddiygina kurslarni tamomlagan bitiruvchilarni mashg'ulot o'tayotganini ko'rishimiz mumkin. Muammo shundaki, maktab o'quvchisi bilan bog'cha tarbiyalanuvchisi o'rtasida juda katta farq bor, vaholanki dars davomida har ikkalasiga ham turlicha metod va texnologiyalardan foydalaniladi.


Tadqiqotimizda aynan maktabgacha ta'lim tashkiloti ingliz tili o'qituvchilari uchun zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga mos tarzda elektron-metodik (Pre-school PDP) platformasi yaratildi (1-rasmga qarang).



1-rasm. “Pre-school PDP” elektron platformasining bosh sahifasi ko‘rinishi

Mazkur “Pre-school PDP” elektron platforma o‘zida mujassamlashtirilgan dasturlar ilmiy tadqiqot ishlari natijalariga asoslangan. Platformaga joylashtiriladigan materiallar ilmiy asosga egaligi, aynan shu ta’lim tashkilotlari o‘qituvchilarini kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilganligi hamda shu kungacha bu turdagi platformaning mavjud emasligi bilan ilmiy va amaliy ahamiyatga egadir. Chet el tajribasini o‘rgangan holda ishlab chiqilgan dastur asosidagi materiallar ham ingliz tili o‘qituvchilarining nafaqat til kompetentligini oshirishga qaratilgan, balki maktabgacha ta’lim tashkilotlarining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olish yuzasidan ham zaruriy materiallar va tavsiyalar bilan boyitilgan [3].

Elektron -metodik platforma va uning resurslar tarkibi maktabgacha ta’limni zamonaviy ta’lim tizimida pedagoglarning mustaqil ta’lim olib o‘z kasbiy bilimlarini oshirishga qaratilgan. Internet aloqa tizimi avzalliklari va imkoniyatlari asosida elektron platforma tizimidan foydalanish samarali natijalar berdi (2-rasmga qarang).



2-rasm. Elektron-metodik ta'minot platformasi tarkibiy tuzilmasi

Yaratilgan innovatsion elektron platforma Maktabgacha ta'lim tashkiloti ingliz tili o'qituvchilarining pedagogik mahoratini oshirish uchun asosiy omil sifatida xizmat qildi. Shuningdek, innovatsion dastur hozirgi raqamli texnologiyalar rivojlanish davrida ingliz tili o'qituvchilarini onlayn masofadan turib malakalarini oshirish imkonini berdi. Bu esa, Maktabgacha ta'lim tizimida xalqaro malaka talablariga javob beradigan pedagoglarni tayyorlashga keng xizmat qildi. Elektron platforma preschool-pdp.uz domeniga joylashtirilgan bo'lib, bir vaqtning o'zida 1500 ta foydalanuvchiga xizmat ko'rsata oladi, unda o'qituvchilar son ro'yxatdan o'tib ilmiy ishlarini yuklashi, ko'chirib olishi, dars ishlanmalari, tarqatma materiallar va mashqlar tizimini yuklab olishi, ilmiy muhokama – forumlar tashkil qilishi, bir-birlarining ilmiy faoliyatiga baho berishi mumkin. Platformaning ko'rsatmalar va yo'riqnomalar qismida pedagoglar uchun mashg'ulotlarni qay tarzda tashkil etish, tarbiyalanuvchilarga shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida ularning yoshiga, qiziqishlariga, jismoniy rivojlanishlariga qarab mashqlarni tanlash, tuzish, saralash hamda mavzularni qanday metodlar asosida o'tishligi borasida tushunchalar berib o'tilgan. Metodlar haqida nazariy ma'lumotlar yoritib berilgan. Platformaning ushbu qismida: Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ingliz tilni o'rgatishda o'yin faoliyatining o'ziga xosligi; ingliz tili mashg'ulotlarda o'yinli mashqlar (jismoniy mashqlar) ning ahamiyati; maktabgacha yoshdagi

bolalarga ingliz tilni o'rgatish metodlarining o'ziga xos xususiyatlari; ingliz tilni o'rgatishning psixologik xususiyatlari; bolalarning yoshiga qarab mavzu ustida ishlash yo'llari; ingliz tilni necha yoshdan o'rgangan ma'qul; maktabgacha yoshdagi bolalar uchun ingliz tili bo'yicha o'yinlar; bog'cha yoshidagi bolalar uchun hayvonlar mavzusini ingliz tilda o'rgatish bo'yicha yo'riqnoma kabi mavzular keng yoritilgan.

O'quv materiallar va o'yinlar qismida tarbiyalanuvchilar uchun yoshga nisbatan saralangan media materiallar joylashtirilgan

Platformadan foydalanish pedagoglar uchun ko'p qiyinchiliklar tug'dirmaydi. Platformaning avzallik tomoni ham shundadir. Bilamizki, ko'pgina xorijiy elektron media materiallar yoshlarga qarab saralanmagan biz ulardan foydalanishimiz uchun avvalo ularning barchasini ko'rib o'rganib keyin bolalarning yoshlarga mos leksik birliklardan foydalanilgan materiallarni tanlab saralab olishimizga to'g'ri keladi. Bu jarayon pedagoglarning anchagina vaqtini oladi, ayniqsa ularni saralash qiyin masaladir sababi hozirgi kunda media materiallarning hajmi ham soni ham juda kengdir. Bu elektron-metodik platforma shu masalaning bir yechimi sifatida qarashimiz mumkin.

Kognitiv va nutqiy qobiliyatni rivojlantiruvchi motorik mashqlar (Cognitive and motor skills) qismi tarbiyalanuvchilarning tayanch kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan qo'l barmoq mayda motorika mashqlar jamlanmasidan iborat. Tajriba sinov davrida pedagoglar bu mashqlardan mashg'ulotlar davomida samarali foydalanishgan va ijobiy natijalar bergan.

Tadqiqotimizda tavsiya etgan ushbu motorik mashqlar ham yoshlarga qarab saralangan. Ushbu mashqlar osondan qiyinga qarab tuzilgan.

Pedagoglarning ilmiy salohiyatini ko'tarishga doir ham tavsiyalar berib o'tilgan. Hozirda maktabgacha ta'lim tizimida pedagoglarga ilmiy maqola, tezis yozish, tayyorlash va konferensiyalarda qatnashish talablari qo'yilgan shu sababdan biz platformaga shu tizimga doir ilmiy maqolalarni joylashtirib chiqdik. Undan o'qituvchilar bimalol foydalanishlari va yuklab olishlari mumkin.

Bu borada o'qituvchilarga o'tkazgan seminar treninglarimizda ham batafsil ma'lumotlar yetkazib, tushuntirish ishlarini olib borganmiz. Natijada biz yaratgan elektron platforma ta'lim sifatini oshirishda, pedagog o'qituvchilarning yangi zamonaviy pedagogik texnologiyalaridan foydalanish samaradorligini oshirishga yordam berdi. Jahon miqyosida karantin tufayli ta'lim muassasalarida ta'lim jarayoni bir oz oqsagandek bo'ldi. Ushbu platformani masofaviy ta'limning eng yaxshi shakllaridan biri deya e'tirof etishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mamatqulov X.A. Pedagoglarda xorijiy tillar bo'yicha kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning axborot-metodik ta'minotini takomillashtirish. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)diss.T – 2017. – 886.
2. O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida. 08.05.2019 y PQ-4312-son.
3. Sreenidhi S K, Tay Shinyi Helena. "Styles of Learning Based on the Research of Fernald, Keller, Orton, Gillingham, Stillman, Montessori and Neil D Fleming". INTERNATIONAL JOURNAL FOR INNOVATIVE RESEARCH IN MULTIDISSIRLINARY FIELD. ISSN – 2455-0620 Volume - 3, Issue - 4, Arr – 2017.p-18.

NEED FOR TEACHING SPEECH ACTS IN THE EFL CLASSROOM

Musaeva Zebokhon Muzaffarovna

Senior Teacher of Uzbekistan State World languages University

English Faculty, department of

Methodology of Teaching English

Tashkent, Uzbekistan

Abstract. *This article underscores the importance of integrating speech act instruction into English as a Foreign Language (EFL) curricula. It elucidates how teaching speech acts enhances learners' communicative competence, cultural awareness, pragmatic skills, social and emotional abilities, learner autonomy,*